

DUNYO TARJIMASHUNOSLIK TARIXIDAN

Sodiqjonova Yoqutxon Azizjon qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi
+998905641137 sodiqjonovayoqutxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima tarixining yuzaga kelishi dastlabki qilingan tarjimalar va ular kimlar tomonidan amalga oshirilganligi, bu janrda yo‘l qo‘yiladigan ayrim kamchiliklar, sinonim so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash va bu jarayonda ikki xalq madaniyatiga qanchalik darajada e‘tibor qaratish to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье истоки истории переводов – это первые сделанные переводы и кем они были сделаны. Некоторые недостатки этого жанра, правильное использование синонимов и то, как много внимания уделяется культуре двух народов в процессе.

Annotation: In this article, the origins of translation history are the first translations made and by whom they were made. Some of the shortcomings of this genre, the correct use of synonyms, and how much attention is paid to the culture of the two peoples in the process.

Kalit so‘zlar: Shumerlar, sivilizatsiya, Homer dostonlari, Rim imperiyasi, tarjima.

Ключевые слова: Шумер, цивилизация, гомеровский эпос, Римская империя, перевод.

Keywords: Sumer, civilization, Homer's epics, Roman Empire, translation.

Tarjima to‘g‘risida so‘z ketar ekan, eng avvalo, uning tarixiga yuzlanamiz. Tarjima tarixi Eng Qadimgi Dunyo, O‘rta Asrlar, Yangi va Eng Yangi deb ataladigan, juda uzoq davom etadigan tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi. Qadimgi zamonlardan bugungi kungacha tarjima Yer yuzining O‘rta Yer dengizi havzasi, Sharqda ikki daryo oralig‘ida yashovchi xalqlar, ya‘ni shumerlar, suryoniyalar, bobulonliklar, ossuriyaliklar, xetlar, Misr, Eron, Hindiston, Xitoy, Turon mamlakatlari kabi mintaqalarda ayni bir vaqtning, o‘zida ham ijtimoiy - madaniy aloqalar vositasi, ham yozma adabiyotning bir turi, tarmog‘i sifatida rivojlandi. Tarjima tufayli madaniy ongning rivojlanishi, fikrlarning turg‘un bo‘la boshlashi, ma‘naviy-ruhiy dunyoqarashlarning kengayishi va ilm-fandagi o‘zgarish jarayonlariga juda chuqur va har tomonlama ta‘sir ko‘rsatgan deya olamiz. Eng qadimgi zamonlarda, ya‘ni miloddan avvalgi III—I asrlarda Yer yuzida Rim sivilizatsiyasi yuksaldi. Albatta, yuksalishda tarjimonlik mahorati alohida ajralib turadi. Rim imperiyaga aylangandan so‘ng, Sharq mamlakatini o‘zlashtirishga kirishdi. Tarjimalar, kitob nashr etish, kitob savdosi, xalq kutubxonalari ochish keng yo‘lga qo‘yilar ekan, xalqning savodxonlik darajasi oshishi bilan birga, kitoblarning bir tildan ikkinchi bir tilga o‘g‘irilishi, tarjimonlik sohasi bilan shug‘ullanish borgan sari avj oldi. Bunda ulkan burilish deya Homer dostonlari lotin tiliga o‘g‘irilganligini ayta olamiz. "Tavrot,, ning dastlabki besh muqaddas kitobi ivriy-romiy nusxasidan yetmish shorih talqini yunon tiliga o‘g‘irilgan bo‘lsa, keyinchalik kitob Rim imperiyasi davrida lotin tilida jarangladi. Aleksandr Makedonskiy Sharqdagi sayohati tufayli "Avesto,, , hind eposlarini yig‘ib Yunonistonga jo‘natdi. O‘sha paytda "Avesto,, ning muhim kitoblari ham yunon tiliga o‘g‘irildi. Tarjimalar tufayli borgan sari ta‘limotlar, buyuk axloqiy andazalar yuzaga chiqib, insoniyatning madaniylashuviga xizmat qildi. Bundan tashqari, tarjimalar adabiy janrlarning taraqqiyotiga ham juda katta turtki berdi. Miloddan

avvalgi 593-574 yillarda payg'ambarlarning ko'p qayg'uli, ayriliq azoblarini kuylagan qo'shiqlari yunonchaga o'girilib, undan Yevropa sarhadlariga tarqaldi. Miloddan avvalgi XI-X asrlarda Dovud ohangarning "Dovud psaltiri,, deb nomlangan qo'shiqlar kitobi yunon va lotin tarjimalari vositasida dunyoga tarqaldi. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda Sulaymon payg'ambarning "Qo'shiqlar qo'shig'i,, kitobi butun Yevropa adabiyotining vujudga kelishi va dunyoni, insonni idrok etish darajasiga behad kuchli ta'sir o'tkazdi. Shunday qilib, miloddan ancha oldingi davrlarda Aleksandriyada xuddi Xitoy va Hindistondagi olimlar, faylasuflar jamoalari kabi museyonlar(qirotaxonalar)da ilk tarjima maktablari tashkil topdi. Ularda dunyo tarjima adabiyotlari tarixi, adabiyot, folklor, falsafa va tug'ilib kelayotgan boshqa fan sohalariga doir ko'zga ko'ringan asarlari yunon, lotin, qadimgi arab, paxlaviy tillariga o'girildi, O'rta Yer dengizi havzasi mamlakatlari, Yaqin O'rta Sharq, Xitoy, Hindiston, Tibetda ilk kitob dunyolari, kitob xazinalari vujudga keldi. Bir tomondan tarjimalar turli xil sohaga doir fanlarni chuqurroq va yaxshiroq o'rganishga imkon ham berdi. Milodiy VIII asrning o'rtalaridan arablar Sharqdan Uzoq G'arb sari yurish boshladilar. Ular Eron orqali ko'hna Turon yerlariga ham kirib keldilar. Hamda bu jarayonda islom ta'limoti, islom shariati, islom madaniyati va yashash taomillari keng yoyildi. Sof arab tilida "Qur'on Majid,, ni o'rganish, yodlash, unga e'tiqod qilish Eron va Turon shaharlarining odatiy ta'limiy hayotiga aylana bordi. IX-XII asrlarda Turon zaminida ilm-fan, falsafa, tibbiyot, ilohiyot, adabiyot, tarix, folklor uyg'onib, yangi rivoj yo'liga chiqdi. Movarounnahrda yetishib chiqqan Muhammad Muso Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qaffol Shoshiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Farg'oni singari olimlar nafaqat ilm-fan bilan shug'ullandilar va ularning asarlari tarjima tufayli Yevropa qit'asiga yangi ilmiy qarashlar, ixtirolar to'liqini olib kirdi. Turon o'lkalaridan chiqqan bu olimlar tarjimalarga, til o'rganishga, boshqa xalqlar madaniyatlarini o'zlashtirishga juda katta qiziqish bilan qarardilar. Chunki tarjima orqali fandagi yutuqlarning ko'lami tobora ko'payib borishiga zamin yaratdi. Chindan ham, til dunyo adabiyotlarining o'zaro aloqalarida, madaniyatlarning yetuk tarzda shakllanishida bebaho ko'priki bo'la oldi.

Hozirgi kunda tarjimonlik sohasi bilan tanishar ekanmiz, axborot yoki kommunikatsiya asrida har bir millat taraqqiyoti, albatta, til bilan bog'liq. Tarjimonlik bilan shug'ullanishning o'ziga yarasha murakkabligi bor. Sababi, badiiy asar ruhini o'z ona tilida ifodalab berish, maqbul so'zlarni tanlash yoki uning ekvivalenti bo'lgan variantlarini to'g'ri topa bilish tarjimonning mahoratiga bog'liqdir. Tarjimon biror chet tilini qanchalik yaxshi bilmasin, u adabiyotdan yiroq kishi bo'lsa, asarni anglab, uni o'quvchiga to'laqonli yetkazib bera olmaydi. Bundan tashqari, tarjimonlarga sotsiologiya, etnografiya va psixologiyani o'rganish ham zarurdir. Tilmoch tarjima qilish jarayonida kitobxon ko'rmagan yerlarini payqab, undagi ma'noni aks ettira berishi lozim. Chunki begona hayot tarzi, uning tilimizga xos bo'lmagan gap qurilishi-yu maqsad-muddaosini o'zbekchada yoki boshqa tilda qayta jonlantirish katta kuch talab etadi. Tarjima borasida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklardan biri — bu ingliz tilidagi asrlarni rus tilidagi tarjimasi orqali o'zbek tiliga o'girishimiz badiiy asardagi badiiy ruhni muqobil tarzda ko'rsata berishimizga chegara qo'ymoqda. Biz qaysi bir tilda tarjima ishlarini amalga oshirmaylik, xoh ingliz tili, xoh nemis tili bo'lsin, o'sha tilning o'zidan tarjima qilingani maqbul. Albatta, tarjimonlikda madaniyatga doir muammolarga duch kelinishi tabiiy. Sababi, har bir xalqning madaniyati o'zining tilida o'z aksini topadi. Masalan, yaponlar odatda "yo'q,, so'zini ishlatmaydilar. Ular "yo'q,, deyishdan qochish uchun boshqa so'zlar yoki gaplardan foydalanadilar. O'zbekistonda "paxta,, so'zi ko'p qo'llaniladi, ammo bu so'z Buyuk Britaniyada paxta o'stirilmagani bois qo'llanilmaydi. Ba'zida biz uchun odatiy bo'lgan so'zlar o'zga millat vakillari uchun g'ayrioddiy yoki, aksincha, begona bo'lishi mumkin. Shu bois, tarjimon faqatgina ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Tarjima jarayonida bir necha

sinonim soʻzlarni toʻgʻri tanlay bilish ham juda muhim. Masalan: "father,, "daddy,, , "dad,, , "pop,,soʻzlari leksik birliklar, ularning barchasi oldingi avloddan boʻlgan qarindosh kishini ifodalaydi. "Ota,, - "father,, soʻzi hurmatni , "dadajon,, - "daddy,, - yaqinlikni anglatadi. Insonlar koʻpincha soʻzlarni denotativ maʼnosiga eʼtibor berib qolmay, ularni hissiy boʻyoqdorligiga ham qarashadi. Bundan tashqari tarjimada baʼzan eski va yangi soʻzlar almashtirib qoʻllanilishi mumkin. Tarjima uchun tanlangan eng yaxshi soʻzlar barcha uchun tushunarli boʻlishi muhimdir. Tarjimon oʻzi tarjima qilayotgan asarning har bir elementiga eʼtibor qaratishi zarur.Bu tarjimaning muvaffaqiyatli boʻlishiga zamin yaratadi.

Hamma narsada meʼyor boʻlganidek,oʻgirilayotgan asar maʼlum bir meʼyorlarni qamrab oladi. Shunga yanada eʼtibor qaratish lozimki, sharq va gʻarb milliy ruhini va uning madaniyatini aks ettirishda yetarli darajada chegara boʻlishi hamda maʼlum soʻz qoʻllashdagi grammatik vositalarni ikkinchi tilda qoʻllashda xushyorlikni yoddan chiqarmaslik kerak. Zeroki, tarjima G.Markes aytganidek, "eng yaxshi oʻqish vositasi,, ekan ,biz yangi va yaxshi asarlar oʻqishimiz uchun , yangi kashfiyotlardan boxabar boʻlmogʻimiz uchun ham chet tillarini puxta oʻrganishni davom etaylik. Shunda oʻqiyotgan asarlarimiz asl yoki tarjima holida boʻladimi , mutolaa jarayonida kerakli bilimga ega boʻlishimizda eng yaxshi vositaga aylanadi.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati

Faxriyorning " Metahikoyalar oralab " kitobi

I. Gʻofurovning Tarjima nazariyasi